

OO'K – 664.8:635.62

QOVOQ QOQISI VA KUKUNINI OLIISH UCHUN TAVSIYA ETILGAN NAVLARNING BIOLOGIK VA TEXNIK JIHLTLARI.

Xidirova Komilaxon Fayzulla qizi

Toshkent davlat agrar universiteti magistranti

Annotatsiya: Qovoq mevalarni quritish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari Toshkent viloyatining Keles tumanidagi fermer xo'jaliklarining va Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik institutining ilmiy tajriba maydonlarida 2023-2024-yillar davomida olib borildi. Dala tajribalarida O'zbekiston hududiga moslashtirilgan va introduksiya qilingan qovoqning "Batler F1", "Ispanskaya-73", "Shirintoy", "Ferro F1" va "Kashgarskaya-268" navlarining biologik jihatlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: qovoq, nav, qoqi, kukun, harorat, namlik, qurish tezligi, shakl, қанд, қуруқ модда,

Kirish Tajriba davomida o'rganilgan qovoq navlarining asosiy agrobiologik xususiyatlari, ya'ni quritishga yaroqliligini aniqlash maqsadida, xom ashyoning gullash bosqichidan to to'liq pishguniga qadar bo'lgan jarayonlar kuzatildi. Natijalarga ko'ra, Palov Kadi-268 navining pishish muddati 114-116 kuni tashkil etdi. Shirintoy navida esa pishish eng uzoq davom etib, 135 kunda to'liq yetilishi kuzatildi. Garchi bu nav uzoq muddatda pishsa-da, uning mevasi kichik o'lchamda bo'lishi aniqlandi. Quritishga eng mos navlardan biri bo'lgan Ferro F1 esa eng qisqa – 108 kunda pishib yetilishi bilan ajralib turdi. Ispanskaya-73 navining pishish muddati esa o'rtacha bo'lib, 117-130 kun oralig'ida kechdi.

Tadqiqot natijalari: Quritish uchun mos qovoq navlarini aniqlash jarayonida, navlarning bir gektardan olinadigan xom ashyo hosildorligi yillar kesimida tahlil qilindi. O'rtacha ko'rsatkichlarga ko'ra, eng yuqori xom ashyo hosildorligi o'suv davri eng qisqa bo'lishiga qaramay, **Ferro F1** navida kuzatildi va u bir gektardan o'rtacha **35,5 tonna** xom mahsulot berdi. Boshqa navlardan **Shirintoy** navida **25-27 tonna**, **Palov Kadi-268** va **Ispanskaya-73** navlarida esa o'rtacha **25-30 tonna** xom ashyo hosildorligi qayd etildi.


1-jadval

Qovoq navlarining agrobiologik xususiyatlari (2022-2024 y.)

Qovoq navlari nomi	Gullashdan pishguniga qadar, kun	Xom ashyo mahsuldorligi	
		ga/t	shundan, quritishga ...
			yaroqli

			t	%	t	%
Ferro F1	108	35,5	34,6	97,5	0,9	2,5
Shirintoy	135	25-27	24,6-26,6	98,4	0,4	1,4
Palov Kadi-268	114-116	25-30	24,1-29,1	96,4	0,9	3,6
Ispanskaya-73	117-130	25-30	23,8-29	95,2	1,2	4,8

Kuzatuvlardan shu ma'lum bo'ldiki qovoqning Shirintoy navi o'rtacha hosildorlikka ega bo'lsada, yaroqli xomashyo mahsuldorligi bilan boshqa navlardan yuqori ko'rsatkichlarni qayd etdi. 1 maydon birligiga Shirintoy navining 25 t hosildan 98,4 % yaroqli maxsulot deb topildi. Shu sababli bu navni quritish uchun mos bo'lgan navlardan biri sifatida olishimiz mumkin bo'ladi (1-rasm).



1-rasm. Qovoq mevalarini quritishga yaroqli va yaroqsiz xomashyo mahsuldorligi, t/ga

Sanoat miqyosida qovoq mevalarni qayta ishlash jarayonida uning texnologik xususiyatlari ya'ni tarkibidagi quruq modda miqdori, qand miqdori va to'qima strukturasi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu kabi va boshqa xususiyatlar tayyor maxsulotning biologik, organoleptik va kimyoviy tarkibi kabi ko'rsatkichlariga o'z tasirini o'tkazadi.


Biz hududlarda yetishtirilgan qovoq mevalarining kimyoviy tarkibini o'rganish ishlari olib bordik. O'rganishlarimizdan shu narsa ma'lum bo'ldiki tadqiqotlarning birinchi yilgi maxsulotlar va ikkinchi yilgi maxsulotlar o'tkazilgan laboratoriya kuztuvlarida ikki hosil yilida olingan xomashyoning kimyoviy tarkibi o'rganilib ular solishtirilganda ko'p tafovut mavjud emasligi aniqlandi. Quyida o'rganilayotgan har bir navning kimyoviy tarkibi keltirilgan (100 g yangi meva massasiga nisbatan):

2-jadval

Qovoq navlarining kimyoviy tarkibi 2022-2024-y (o'rtacha)

Tarkibiy modda	Ispanskaya 73	Palov kadi 268	Shirintoy	Ferro F1
Suv (g)	81.5	84.5	82.5	86.5
Quruq modda (g)	16.0	13.5	15.5	12.5
Kraxmal (g)	2.0	1.6	2.1	1.8
Xun tolalari (g)	1.2	1.0	1.1	1.4
β -karotin (mg)	6.0	4.5	7.0	9.5
Vitamin C (mg)	11.0	8.0	10.0	9.5
Kaliy (mg)	215.0	195.0	230.0	285.0
Kaltsiy (mg)	25.0	20.0	25.0	22.0
Temir (mg)	0.8	0.6	0.7	0.65

Qovoq mevalarda quruq modda miqdori — bu o'simlikdagi umumiy og'irlikdan suv tarkibini chiqarib tashlagandan keyingi qismdir. Ya'ni, quruq modda — bu o'simlikdagi suv bo'lmagan barcha organik va noorganik elementlarning yig'indisidir. Quruq modda tarkibiga uglevodlar (masalan, shakar va kraxmal), yog'lar, oqsillar, minerallar hamda tolalar kiradi. Qovoq mevalarda quruq modda miqdori o'simlikning namligiga, yetilganlik darajasiga va saqlash sharoitlariga bog'liq holda o'zgaradi. Masalan, yangi yig'ilgan poliz ekinlari namligi yuqori bo'lib, shuning uchun quruq modda foizi odatda 10-30% atrofida bo'ladi. Quruq modda ko'p bo'lsa, o'simlikda suv kamroq ekanligini anglatadi. Quruq modda miqdori yuqori bolgan navlarda quruq maxsulot chiqish foizi yuqori bo'ladi va bu iqtisodiy samaradorlikka olib keladi.



2-rasm. Qovoq navlarining kimyoviy tarkibi

Yuqoridagi grafikda siz **Ispanskaya 73**, **Palov kadi 268**, **Shirintoy** va **Ferro F1** qovoq navlarining har bir asosiy kimyoviy modda bo'yicha o'zaro taqqoslanishini ko'rishingiz mumkin:

Ferro F1 – β -karotin va kaliy miqdori bo'yicha yetakchi.
Shirintoy – shakar miqdori bo'yicha eng shirin nav.
Ispanskaya 73 – quruq modda va temir miqdori bo'yicha yuqori.
Palov kadi 268 – suvga boy, palovga mos, o'rtacha shirinlikda.

Shuningdek xomashyo tarkibidagi qand miqdori ham quritilgan maxsulotlarning sifat ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Qovoq tarkibidagi **qand miqdori** – bu qovoq ichidagi shakarlarning umumiy miqdorini bildiradi. Qandlar — bu qovoqda tabiiy ravishda mavjud bo'lgan shakar turlari, masalan, glyukoza, fruktoza va sukroza.

Xulosa: Qovoqdagi qand miqdori uning turiga, yetilganlik darajasiga va o'sish sharoitlariga qarab farq qilishi mumkin. Odatda, qovoqda qand miqdori nisbatan past bo'ladi, chunki u asosan kraxmal va tolalarga boy sabzavot hisoblanadi, lekin qovoqning shirin navlarida qand miqdori yuqoriroq bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. X.Ch.Bo'riyev, O.A.Ashurmetov «Poliz ekinlari biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi», T.: «Mehnat» 2000. (10-45) .

2. Yo'ldoshev H.S. O'simlik mahsulotlarini yetishtirish texnologiyasi. O'quv uslubiy qo'llanma. –Toshkent: Ilm Ziyo, 2003.-17 b.

3. «O'zbekiston xududida ekishga tavsiya etilgan qishloq xo'jalik ekinlari» Davlat reestri. T.: 2000.
4. Q.Qo'chqorov va boshq. «O'zbekistonda sabzavot, poliz ekinlari urug'chiligi», T.: «O'zbekiston» 1985.
5. X.Ch.Bo'riyev, V.I.Zuyev, A.A.Umarov «Polizchilikdan amaliy mashg'ulotlar» T.: «Mehnat» 1997.
6. X.Ch.Bo'riyev «Sabzavot ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi», T.: «Mehnat» 1999.